

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



TIZIMLI TAHLIL

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000	Biznes va boshqaruv
Mutaxassislik:	70411102	Tashqi iqtisodiy faoliyat (xorijiy fuqarolar uchun)


Toshkent-2025

QO'NG'IRMA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QO'NG'IRMA

Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti direktori:


G. Arifjonov

“Tashqi iqtisodiy faoliyat” kafedrası mudiri:


PhD. dotsent M. Voxidova

ARM boshlig'i:


Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi TTI104	O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim turi O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tizimli tahlil	48	72	120
2.	<p align="center">I. Fanlarning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarni murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, texni va boshqaruv tizimlarini tahlil qilish, modellashtirish va samarali qarorlar qabul qilishda tizimli yondashuvdan foydalanishga o'rgatishdir. Fan orqali talabalar muammolarni yaxlit ko'rib chiqish, ularning sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, turli alternativatlarni baholash va optimal yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Shuningdek, fanning maqsadi talabalarni zamonaviy boshqaruv, axborot texnologiyalari va innovatsion loyihalash jarayonlarida tizimli tahlil tamoyillarini qo'llashga tayyorlashdir.</p> <p>Fanning vazifalari quyidagilardan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> talabalarda tizim tushunchasi, uning turlari va xususiyatlari haqida nazariy bilimlarni shakllantirish; murakkab muammolarni tizimli yondashuv asosida qo'yish va ularning yechimini ishlab chiqish metodologiyasini o'rgatish; qaror qabul qilish jarayonida modellashtirish, optimallashtirish va ekspert baholash usullaridan foydalanish ko'nikmalarini berish; axborot tizimlari va axborot oqimlarini tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qo'llashni amalda o'rgatish; noaniqlik va risk sharoitida samarali qaror qabul qilish usullarini o'rgatish; loyiihalash va boshqaruv faoliyatida tizimli tahlilning o'rni va ahamiyatini yoritish; talabalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga oid tahliliy fikrlash va mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish. <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Waseda University (181 QS) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>(https://www.waseda.jp/fcom/wbs/en/applicants/why/imba)</p> <p align="center">II. Asosiy nazariy qisim (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p align="center">II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p>			

1-mavzu. Tizimli tahlil fanining predmeti va metodologiyasi

Ushbu ma'ruzada tizimli yondashuvning ilmiy asoslari, tizimli tahlilning predmeti, maqsadi va metodlari hamda uning fanlararo aloqasi yoritiladi.

2-mavzu. Tizim tushunchasi va uning turlari

Tizimlarning asosiy belgilarini, tabiiy va sun'iy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.

3-mavzu. Tizimli tahlilning asosiy tamoyillari

Ierarxik yondashuv, murakkablikni boshqarish, yaxlitlik, qayta aloqa va funksional tahlil tamoyillari haqida tushuncha beriladi.

4-mavzu. Model va modellashtirish usullari

Matematik, imitatsion va axborot modellari tushuntiriladi, ularning afzalliklari va qo'llanish sohasi ko'rib chiqiladi.

5-mavzu. Qaror qabul qilish nazariyasi

Qaror qabul qilish jarayoni, noaniqlik sharoitida qarorlar, mezonlar va optimallik nazariyalari tahlil qilinadi.

6-mavzu. Murakkab tizimlarni tahlil qilish bosqichlari

Tizimni maqsadga muvofiq tahlil qilishda bosqichma-bosqich usullarni qo'llash, muammo qo'yish va yechim ishlab chiqish.

7-mavzu. Tizimli tahlilda optimallashtirish usullari

Chiziqli va chiziqsiz dasturlash, dinamik va stoxastik optimallashtirish metodlari.

8-mavzu. Axborot tizimlari va ularning tahlili

Axborot oqimlari, ma'lumotlar bazalari va axborot tizimlarini tahlil qilishda tizimli yondashuvni qo'llash.

9-mavzu. Tizimli tahlilda ekspert baholash usullari

Ekspertlarning fikrlarini yig'ish, tahlil qilish, ekspertiza usullaridan foydalanish.

10-mavzu. Risk va noaniqlik sharoitida tizimli tahlil

Riskni hisoblash, noaniqlikni kamaytirish va ehtimollik yondashuvlari asosida qaror qabul qilish.

11-mavzu. Loyihalash va boshqaruvda tizimli tahlil

Yirik loyihalarda tizimli yondashuv, loyiha boshqaruvi, PERT va Gantt diagrammalaridan foydalanish.

12-mavzu. Tizimli tahlilning zamonaviy qo'llanmalari

Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, raqamli transformatsiya va innovatsion loyihalarda tizimli yondashuv.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Tizimli tahlili" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Tizimli tahlil" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tizimlarni aniqlash va klassifikatsiya qilish mashqi
2. Oddiy tizimlarning strukturaviy sxemalarini tuzish
3. Funktsional tahlil usullari bilan amaliy mashq
4. Matematik model tuzish va uni tahlil qilish
5. Qaror daraxtlari bilan ishlash
6. Murakkab muammolarni kichik qismlarga ajratish
7. Xiziqli dasturlash masalalarini yechish
8. Axborot oqimlari diagrammasini tuzish
9. Ekspert baholash bo'yicha mashq (anketa tuzish)
10. Risklarni baholash mashqi (scoring usuli)
11. Loyiha boshqaruvida tizimli yondashuv (PERT/Gantt)
12. Amaliy keys: raqamli transformatsiya loyihasini tahlil qilish

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test.

	<p>munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash; <p><i>Tizimli tahlil fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1) Tizimli yondashuv tarixiy shakllanishi 2) Tizim va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir 3) Tizimli tahlilda umumilmiy usullar 4) Modellashirishning zamonaviy usullari 5) Qaror qabul qilishning ko'p mezonli modellari 6) Optimizatsiya masalalari va ularning amaliy qo'llanilishi 7) Axborot tizimlarining rivojlanish bosqichlari 8) Ekspertiza usullarini turli sohalarda qo'llash 9) Risklarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlari 10) Tizimli tahlilning ishlab chiqarishda qo'llanilishi 11) Loyihalarni tahlil qilishda tizimli usullarning afzalliklari 12) Tizimli tahlilning sun'iy intellekt asosidagi rivojlanish istiqbollari
3.	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • tizim, tizimli yondashuv, tizim elementlari va ularning o'zaro aloqalari haqida mukammal bilimlarni o'zlashtiradi; murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va texnik tizimlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan asosiy metodologiyalar haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; • murakkab muammolarni tizimli tahlil asosida qo'yish, muammo daraxti va maqsadlar ierarxiyasini tuzish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va baholash a <i>ko'nikmalarga ega bo'lishi</i>; • ishlab chiqarish, boshqaruv va loyihalash jarayonlarida tizimli tahlil usullaridan samarali foydalanish <i>malakalarga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys-stadilar; • blis-so'rov; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada ioritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha e'zma ishini topshirish.</p>

6.

Asosiy adabiyotlar

1. Убайдуллаева Ш.Р., Газнева Р.Т., Убайдуллаева Д.Р. Основы системного анализа: Учебное пособие для магистрантов, обучающихся по специальности «Автоматизация технологических процессов и производства». - Ташкент: Изд-во НИУ «ТИИМСХ», 2023. - 120 с.
2. Системный анализ и моделирование процессов в техносфере : учеб. пособие / А.А. Волкова, В.Г. Шишкунов. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2019.— 244 с.
3. Теория систем и системный анализ: учебное пособие / И.С. Спименко. - Москва : КНОРУС, 2021. — 264 с. - (Магистратура).

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tandiqliy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023
3. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.
4. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun, -Toshkent: O'zbekiston, 2022.
5. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.

Scopusdan maqolalar

1. Setiyowati, H. and Trisnawati, L. (2023). Penerapan konsep sustainable finance: model analytical hierarchy process. Jurnal Lentera Akuntansi, 8(1), 141. <https://doi.org/10.34127/jrakt.v8i1.826>
2. Yuliana, D., Ayu, F., Mas'ud, I., Hidayat, F., & Alfadri, S. (2022). Application of decision support system for employee's bonus using analytical hierarchy process method. Journal of Applied Engineering and Technological Science (Jaets), 4(1), 441-450. <https://doi.org/10.37385/jaets.v4i1.1181>

Axborot manbalari

1. www.pedagog.uz
2. www.Ziynet.uz
3. www.Edu.uz
4. [tdpu-INTRANET.Ped.](http://tdpu-INTRANET.Ped)
5. <http://sbe.gazi.edu.tr/>
6. <http://www.geosities.com/tyaglo/ct/index.html>.
7. www.casemethod

2025

	<p>8. Ruzaniya@rambler.ru 9. www.Ziyo.net.uz 10. http://www.sosyalbilimler.hacettepe.edu.tr/ 11. http://tde.deu.edu.tr/ 12. http://sosyalbilimler.istanbul.edu.tr/ 13. http://www.sosbilen.ege.edu.tr/ 14. http://www.turkishlanguage.org 15. http://www.tashgiv.uz/</p>
7.	<p>O'quv dasturi "Tashqi iqtisodiy faoliyat" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025 - yil "12" 06 dagi "20" - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 - yil "28" 06 dagi "11" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun ma'sul: M.X.Voxitlova -Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Tashqi iqtisodiy faoliyat" kafedrası mudiri, PhD</p>
9.	<p>Taqrizchilar: N.T.Azizova – "Turizm" kafedrası dotsenti, i.f.n. S.E.Mamurov–Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Menejment" kafedrası katta o'qituvchisi, PhD.</p>